

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA TILGA E'TIBOR

Rajabova Durdona*Urganch Innovatsion universiteti pedagogika va boshlang'ich sinflarda metodik ta'lim kafedrası o'qituvchisi, Pedagogik fanlari nomzodi (PhD)*

Annotatsiya: *ushbu maqolada uzliksiz ta'lim tizimida davlat tilini tizimli rivojlantirish, tilga bo'lgan e'tibor, dunyoda millat qadrini, uning borligini ko'rsatib turuvchi yagona vosita ekanligini ta'lim jarayoniga singdirish borasidagi qarashlar ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *til, davlat tili, ta'lim tizimi, jarayon, uzluksiz ta'lim.*

Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan davrda har sohada oldinga siljish, o'sish, taraqqiyot mavjud. Bu ijtimoiy, siyosiy, madaniy, umuman, qaysi soha bo'lishidan qat'i nazar o'zini namoyon qilmoqda. Ijtimoiy sohadagi har bir yutuq o'zining natijasini bevosita siyosat, iqtisod kabi sohalarda namoyon qila oladi.

Xo'sh, ijtimoiy sohada qaysi bir mezon amal qiladi?! Bizningcha, til va unga bo'lgan e'tiborning o'zi ijtimoiy-gumanitar sohaning bosh mezoni bo'la oladi. Bugungi kunda biz o'zbek tilida so'zlashuvchi til vakili sifatida tilimizga qanchalik hurmat ko'rsata olyapmiz?! Uning obro'si uchun nimalar qila olyapmiz yoki qila olamiz? Mashhur adib Abdulla Qahhor yo'l qoidasini buzganga hushtak chalinishini, lekin til qoidasini buzganga hech kim hushtak chalmasligini kinoya qilib aytganda yuz chandon haq ekanligini zamon ko'rsatib turibdi. Masalan yo'l-yo'lakay minglab mahsulotlarning turli xil reklamasiga ko'zimiz tushadi. Reklama matnidagi (matndagi uslubni-ku qo'ya turing) imlo qoidalaridagi qo'pol xatoliklardan insonning dili xufton bo'ladi. To'g'ri, har qanday reklama turi xalq va uning negizida iqtisodiyotimizga ma'lum bir foyda beradi, ammo undagi tilning nufuziga raxna solayotgan xatoliklar xalqimiz bilimiga, yoshlar savodiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmasligini unutmaslik lozim. Shundan kelib chiqqan holda biz reklama matnlariga jiddiy e'tibor berish tarafdorimiz. Xususan, ushbu kamchilikni bartaraf qilish uchun har bil tilchi o'zining jonbozligini ko'rsatmog'i lozim, deb o'ylaymiz. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi hududida reklama matnlari xatoliklarni bartaraf bo'yicha quyidagi takliflarni berishni lozim topdik:

- har bir e'lon, reklama, afishalar maxsus lingvist-mutaxassis tomonidan tekshirilishi;
- har bir e'lon va reklama, afisha peshtaxtalari ma'lum nazoratdan o'tishi va ushbu nazorat “Davlat tili markazi” (yoki uning hududiy filiallari) tomonidan amalga oshirilishi va tartib asosida reklamani chiqarish bo'yicha ruxsatnoma berilishi;

- maxsus ruxsatnomasi bo‘lmagan yoki nazoratdan o‘tmagan, lekin chop etilgan reklamalarning tarqalishiga qonun bilan chek qo'yilishi;
- reklama matnlarida ruscha-baynalmilal so‘zlarning qo‘llanilishining cheklanishi;
- e‘lon va reklama, afisha peshtaxta matnida faqat o‘zbek tilidagi so‘zlardan foydalanishning belgilanishi;
- reklama matnlarida har qanday xatoliklar uchun jarima qo‘llanilishi.

Tilning sofliqi uning targ‘ib etilishi bilan bog‘liq. Bu targ‘ibot esa e‘lon, reklama matnlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Yuqorida keltirib o‘tilgan taklif loyihasining amalga oshirilishi savodli yoshlarning tarbiyalanishiga, bu bilan tilga hurmatning kuchayishiga omil bo‘la oshiga ishonamiz.

Bu dunyoda millat qadrini, uning borligini ko‘rsatib turuvchi yagona vosita uning tili sanaladi. “Tili yo‘q millat yo‘qlikka mahkum”- deb bejizga aytilmaydi. Ona tili – millatning ruhidir.” Til — davlat timsoli, mulki. Tilni asrash, rivojlantirish – millatning yuksalishi demak. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yilgan. Shu tariqa o‘zbek tili mustaqil davlatimizning Bayrog‘i, Gerbi, Madhiyasi qatorida turadigan, qonun yo‘li bilan himoya qilinadigan muqaddas davlat ramziga aylandi.” Turkiy til, xususan, o‘zbek tili ham bugungi mavqeyiga osonlikcha yetib kelgani yo‘q. Bundan 34 yil muqaddam o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan edi. Bu o‘z davrida tom ma’noda olamshumul voqea bo‘lgan edi. Chunki, Beruniy, Ibn Sino, Al Xorazmiy, Al Farg‘oniy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Bobur Mirzo singari buyuk siymolarni yetishtirgan xalq tili yo‘qolish arafasiga kelib qolgan edi. Mustaqillikka ilk qadamlar tashlanayotgan davridayoq prezidentimiz tomonidan o‘zbek tiliga davlat maqomi berish masalasi kun tartibiga qo‘yilib, bu ish amalga oshirilgan edi. Ona tilimiz – o‘zbek tiliga 1989 yil 21 - oktabrda davlat tili maqomi berildi. Bu mamlakatimiz, yurtdoshlarimiz hayotidagi unutilmas, tarixiy voqeaga aylandi. Agar o‘shanda til to‘g‘risida qonun qabul qilinmaganda edi, o‘zbek tili ham tarix sahifalaridan joy olgan bo‘larmidi?!. Til har bir millatning qadriyati, madaniyati, kechasi va bugunini ko‘rsatuvchi ko‘zgudur. Tildan unumli foydalanmaslik, tilni qadrlamaslik uning tanazzuliga sababchi bo‘ladi. “YUNESKO tomonidan nashr qilinadigan “Yo‘qolib ketish xavfi arafasida turgan jahon tillari atlas”da Yevropadagi 50ta, Tinch okeani mintaqasida esa 200ta til yo‘qolib ketish arafasida ekani ta’kidlanadi. Afrikadagi 1400ta tildan 600tasi kelajakda, 250tasi esa yaqin orada butunlay yo‘qolishi haqida bong urilmoqda”.³⁶ Ming afsuski, hozirgi kunimizda tilimizdagi turli g‘alizliklar, ya’ni so‘zlarni buzib aytish, jargon va argolardan foydalanish, evfemizning keng miqyosda qo‘llanilishi kabi omillar tilimiz

³⁶ www. ziyo.uz

mavqeyiga putur yetkazmoqda. Masalan, yoshlar nutqida ishlatiladigan “ok” soʻzi oʻzbek tilidagi “Xoʻp” soʻzi oʻrnida qoʻllanilmoqda. Bir qarashda bu soʻz “mensimaslik” , “kamsitish “ maʼnosida ifodalanayotgandek tuyuladi. Bundan tashqari ruscha baynalminal soʻzlar ham nutqimizga shunchalik joylashdiki, biz ulardan oʻzbekcha soʻzlarning oʻrnida foydalanib kelmoqdamiz. Masalan, umuman soʻzi oʻrnida “vapshe” soʻzini qoʻllashimiz. Hatto bazilar ruscha baynalminal soʻzlarning sof oʻzbekcha variantini ham bilishmaydi. Bu holatlar bugungi jamiyatimiz oldidagi eng kata muammolarimizdan biridir. Chunki, yuqorida aytganimizdek, til davlat madaniyatini tamomila koʻrsatib beradi. Buyuk maʼrifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek: “Har bir millatning dunyoda borligʻini koʻrsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yoʻqotmak millatning ruhini yoʻqotmakdur”.

Xususan , Turkiya turizmi tizimida shunday bir turizm turi bor. Turkiyaga kelmoqchi boʻlgan sayyohlar maxsus internet saytidan turkiyalik aholi bilan kelishib, Turkiyadagi mehmonxonalarga emas kelishilgan oilaning uyiga sayohatchi boʻlib keladi. Bu bilan ular nafaqat u mamlakat goʻzalligidan bahramand boʻladi, balki shu yerning madaniyatini yanada yaxshiroq bilish imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari, siz xorijlik bir odam bilan gaplashsangiz, u odamning tili orqali madaniyatini ham bilib olasiz. Oʻzbek tili shu kunga yetib kelgunga qadar juda koʻp mashaqqatlarni boshdan kechirgan. Jumladan, rus bosqini paytini esga olaylik, oʻsha paytlarda oʻzbek tilining mavqeyi deyarli yoʻqolish arafasida edi. Ana shu paytlarda general Skobelev aytganidek, “ Davlatni yoʻq qilish uchun uni qirish shart emas, tili va madaniyatini yoʻq qilish kifoya”. Xususan, adiblarimiz hayotiga nazar tashlaydigan boʻlsak, tazyiq va bosim ostida yashaganligini koʻramiz. Maktab ochib bolalarga taʼlim bermoqchi boʻlgan jonkuyar jadidlarimiz boshiga tushgan musibatlar hammamizga ayon. Bu oʻrinda muddatidan oldin otib oʻldirilgan yozuvchilarni eslab oʻtmaslik mumkin emas. Tilimizni yoʻqotish uchun qanchadan-qancha urinishlar boʻlmadi. Lekin oʻzbek tili oʻzligini saqladi. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdugʻaniyevich Karimov tomonidan oʻzbek tiliga davlat tili maqomi berilganligi tilimizning barqarorligini yana bir bor mustahkamlab qoʻydi.

Oʻzbek tilining borligʻi, boyligi, boʻy-basti-yu butunligini koʻrsata olgan filologiya fanlari doktori, professor Nizomiddin Mahmudov taʼkidlaganlaridek, “Odamni, olamni va Ollohni tanimoqday mashaqqatli, sharaflı yoʻlning avval-oxir charogʻboni shu tildir. Dunyoda oʻzining kimligini anglash, qavmining hamiyati va hurligini koʻrish tuygʻusi ham, avvalo, til tufayli poydordir. Ona tilining inson va aqliy va maʼnaviy-ruhiy dunyosining tayanchi ekanligidan iborat haqiqatni hushi oʻzida boʻlgan odamlarning barchasi eʼtirof

etadi.”³⁷ O‘zbek tilining me‘yorlari mukammal shakllanganligi o‘zbek xalqi madaniyatining ulkan yutug‘idir. Mazkur tilni yuksak darajada asrab-avaylash maqsadga muvofiq. Millatimizning millatligini ko‘rsatuvchi, “...borligi, birligi, va butunligidan iborat boqiy baxtining bukilmas taxti” (Nizomiddin Mahmudov) hisoblanuvchi raso va ravon tilimizning buguni va ertasi uchun har birimiz mas’ulmiz. Xullas, tilning rivojini ta‘minlash, avvalo, jamiyatda til haqidagi tushunchalarning barqarorligiga, til egalarining bebaho boylikka hurmat-ehtiromiga bog‘liq.

O‘zbek xalqi XX asrning o‘zida arab (1929-yilgacha), lotin (1929-1940-yillarda), kirill (1940-1993-yillar) yozuvidan 1995-yildan boshlab esa lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosidan foydalanib kelmoqda. Ammo 1993-yil 24-avgustda joriy qilingan so‘nggi alifbo ham bugungi kunda o‘zining ayrim salbiy jihatlarini ko‘rsatmoqda, alifbodagi ba‘zi kamchiliklar uni amaliyotga to‘la tatbiq etishga to‘sqinlik qilmoqda, texnologik muammolar keltirib chiqarmoqda. Yangi alifbo islohoti esa yuqoridagi kamchiliklarni to‘laqonli bartaraf etishga, til rivojidadagi eng katta burilish yasashga xizmat qiladi. Ushbu yangi islohoti tufayli 28 ta harf, 1 ta harflar birikma va tutuq belgisidan tarkib topgan takomillashtirilgan alifbo loyihasi joriy etiladi va bu yurtimiz iqtisodiyoti, xalqimiz ma‘naviyatiga hech qanday salbiy ta‘sir o‘tkazmaydi. Kitoblarni chop etish, hujjatchilik ishlaridagi to‘siqlar yangi alifbo tartibidan so‘ng o‘z yechimini topadi. Shunisi ahamiyatliki, yangi alifbo islohotidan so‘ng maktab darsliklari, shaxsiy hujjatlar (passport va ID kabilar)dagi eski alifbodagi harflar o‘zinibg ahamiyatini yo‘qotmaydi, ya‘ni ularning muddati tugagach, keyin almashtirish ko‘zda tutilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muqimova Z. O'zbek tili- o'zbek xalqining o'zligi, 2021
2. [www. ziyo.uz](http://www.ziyo.uz)
3. Frunzeva, M. Z., & Odilbekovna, R. N. (2024). TIL O‘RGANISHDA O‘YINLASHTIRISH VA BOSHQA INNOVATSION YONDASHUVLAR. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 9(9), 11-13.
4. Матниязова, Ф. Ф., & Мадрахимова, З. Ф. (2024). ТЕХНОЛОГИЯ ПРИМЕНЕНИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ. THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD, 4(1), 116-118.

³⁷ Muqimova Z. O'zbek tili- o'zbek xalqining o'zligi, 2021

5. Мадрахимова, З. Ф., Баркулиева, Л. Р., & Юсупова, М. К. (2024). СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В ФОРМИРОВАНИИ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ: ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ. YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(3), 165-169.

6. Мадрахимова, З. Ф. (2024). Литературные Загадки В Детской Поэзии: Описание, История Создания. Journal of Innovation in Education and Social Research, 2(1), 166-171.

7. Мадрахимова, З. Ф. (2023). ОБРАЗОВАНИЕ СЛОВ ОТ ТЮРКСКИХ ОСНОВ С ПОМОЩЬЮ РУССКИХ СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ. Innovative Development in Educational Activities, 2(9), 142-145.

8. Мадрахимова, З. Ф. (2023). ЕСЛИ НЕ ЖИТЬ СОВРЕМЕННОСТЬЮ-НЕЛЬЗЯ ПИСАТЬ. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(16), 570-572.

9. Аблаева, Н. К. (2024). ПРОБЛЕМЫ ИЗУЧЕНИЯ ЛИТЕРАТУРЫ В СОВРЕМЕННОЙ ШКОЛЕ. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 2(5), 152-156.

10. Аблаева, Н. К. (2024). РОЛЬ ПРИРОДЫ В ДРАМЕ ОСТРОВСКОГО «ГРОЗА». MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 8(8), 176-181.

11. Аблаева, Н. К. (2024). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФОЛЬКЛОРНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ В БАЛЛАДЕ В. ЖУКОВСКОГО «СВЕТЛАНА». YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(3), 129-132.

12. Аблаева, Н., & Джуманиязова, И. (2024). ВОЗМОЖНОСТИ КОРПУСНОЙ ЛИНГВИСТИКИ В ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО СЛОВООБРАЗОВАНИЯ. «CONTEMPORARY TECHNOLOGIES OF COMPUTATIONAL LINGUISTICS», 2(22.04), 520-524.

13. Аблаева, Н. К. (2024). НРАВСТВЕННО-ФИЛОСОФСКАЯ ПРОБЛЕМА В ТВОРЧЕСТВЕ ЛН Толстого (на примере романа " Война и мир"). JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH, MODERN VIEWS AND INNOVATIONS, 1(1), 24-27.